

KARTOSHKKA TURLI NAVLARIDA KOLORADO QO'NG'IZINING TUXUM QO'YISH DINAMIKASI VA YASHOVCHANLIGI

D.X. QODIROV., I.B. AKRAMOV

Mutaxassislik: 5A140101-Biologiya (fan yo'nalishi) (2-bosqich)


Kartoshka o'simligiga zarar keltiradigan zararkunanda hasharotlar orasida kolorado qo'ng'izi (*Leptino tarsade cemlineata*) o'ta muhim ahamiyatga ega. Agar unga qarshi kurash choralari o'tkazilmasa, ushbu zararkunanda ta'sirida kartoshkadan olinadigan hosil 70-90% yo'qotilishi mumkin [1,2]

Hozirgi davrda kolorado qo'ng'izining biologiyasi, ekologiyasi va zarari haqida ancha keng ma'lumotlar to'plangan. Ammo ushbu zararkunandaga qarshi kurashda, asosan, kimyoviy kurash vositalaridan foydalanilmoqda. Kimyoviy vositalarning keng ishlatilishi agrosenozlardagi ekologik vaziyatning izdan chiqishiga sabab bo'ladi. Kartoshka turli navlarining kolorado qo'ng'izi bilar zararlanishini o'rganish bu zararkunandaga qarshi uyg'unlashgan kurash tizimini ishlab chiqishning muhim elementi hisoblanadi.

Biz o'z tadqiqotlarimizda kartoshka turli navlarida kolorado qo'ng'izining tuxum qo'yish dinamikasi va yashovchanligini tahlil qildik.

Tadqiqotlar Pastdarg'om tumanidagi «Fayzli Yer-XSh» fermer xo'jaliklarida olib borildi. Tadqiqotlarda kartoshkaning O'zbekiston kartoshkachiligida keng foydalaniladigan quyidagi ertapishar Red Skarlet, Hamkor 1150, Sante va Quvonch -1656 M navlari tanlandi. Hisoblash ishlari har bir navdan ajratilgan 10 ta na'muna o'simliklarda olib borildi.

Turli navlarda kolorado qo'ng'izining tuxum qo'yish dinamikasi 1-rasmda tasvirlangan. Rasmdan ko'rinib turibdiki, tadqiqot uchun olingan navlar kolorado qo'ng'izini o'ziga jalb qilishi bilan bir-biridan sezilarli farq qiladi.



1-Kartoshka turli navlarida kolorado qo'ng'izining tuxum qo'yish dinamikasi
(Pastdarg'om tumani, 2017)

Hamkor 1150 navi kolorado qo'ng'izining o'ziga jalb qilishi bo'yicha birinchi o'rinni egalladi. Bu navda qo'ng'izlar tuxum qo'yishga kirish vaqtida, ya'ni may oyining boshlarida, qo'yiladigan tuxumlar soni boshqa navlarga nisbatan yuqori bo'lishi kuzatildi va har 10 ta o'simlikdagi tuxumlar soni 30 tani tashkil etadi. Tuxumlar soni maksimal qiymatga erishgan davrda, ya'ni iyun oyining o'rtalarida ushbu navda har 10 ta o'simlikdagi tuxumlar soni 120 tani tashkil etadi. Bu holat tuxum qo'yish tugaguncha kuzatiladi. Kolorado qo'ng'izi tomonidan tuxum qo'yish uchun eng noqulay nav Sante navi bo'ldi. Yuqorida qayd etilgan vaqtlarda Sante navida har 10 ta o'simlikdagi tuxumlar soni, mos ravishda 17 ta va 100 tani tashkil etdi.

Kolorado qo'ng'izini tuxum qo'yish uchun o'ziga jalb qilish bo'yicha Red skarlet va Quvonch -1656 M navlari oraliq holatni egalladi.

Turli navlarda kolorado qo'ng'izining yashovchanligi tahlil qilinganda, eng yuqori yashovchanlik Quvonch -1656 M navida qayd qilindi (26,9%). Shunga yaqin holat Hamkor 1150 navida kuzatiladi. Eng past yashovchanlik Santenavida qayd etildi va 23,2% ni tashkil etdi.

1-jadval

Kartoshka turli navlarida kolorado qo'ng'izining yashovchanligi (Pastdarg'om tumani, 2017)

Navlar	Tuxumlar soni	Lichinkalar soni	G'umbaklar soni	Uchib chiqqan qo'ng'izlar soni	Yashovchanlik, %
Hamkor 1150	250	142	98	66	26,4
Sante	190	120	69	44	23,2
Red skarlet	208	122	75	50	24,0
Quvonch - 1656M	182	109	85	49	26,9

Shunday qilib, tekshirilgan navlardan Sante navi kolorado qo'ng'izining o'ziga eng kam jalb qilishi va qo'ng'izlar yashovchanligining eng past darajasi bilan ajralib turadi.

Adabiyotlar

1. Tilavov T. Kolorodo qo'ng'izi va unga qarshi kurash. Toshkent, Yangi asr avlodi, 2009.
2. Алимухаммедов С.Н., Адилов З.К., Жўраев М., Даминов Д.Б. Рекомендации по борьбе с колорадским жуком на посевах картофеля и пасленевых культур в Узбекской ССР. Т., 1988.